



**SIRDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**




**SIRDARYO VILOYATINING SANOAT
ISHLAB CHIQRISHI**
2023- YIL YANVAR-FEVRAL OYLARI




Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2023- yil yanvar-fevral oylarida)

2023- yilning yanvar-fevral oylarida viloyat korxonalari tomonidan 2147,1 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, 2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 103,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash hissasiga toʻgʻri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 57,5 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi oʻzgarishini tavsiflovchi nisbiy koʻrsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 19,5 % ga o'sishi kuzatildi.


Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,9 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,04 % ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoat



2023- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 902,9 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 42,0 % ni tashkil etdi.


2022- yil yanvar-fevral

44,1 %

2023- yil yanvar-fevral

42,0 %


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 3,0% ni (2022- yilning yanvar-fevral oylarida – 3,9 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 3,4 % (3,2 %), o'rta-quyi texnologiyali – 8,7 % (22,8 %) va quyi texnologiyalisi – 84,9 % (70,1 %) ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 3,0 % (2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 81,1 %), boshqa nometall mineral mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 7,3 % (2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 67,0 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 46,4 % (2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,6 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 35,6 % (2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 114,0 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,7 % (2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 45,3 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati
O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da *


Yirik shoxli qoramollar uchun ozuqa




Kepak




Tarkibida alkaloidlar bo‘lgan yoki bo‘lmagan, lekin gormonlar yoki antibiotiklar bo‘lmagan medikamentlar



Yumshoq bug‘doy va spelta uni




Sellyuloza




* Yanvar-fevral oylari yirik korxonalar bo‘yicha


Aroq




Paxta, bint va shu kabi mahsulotlar




Boshqa plastmassalardan qoplar va sumkalar




Paxta tolasi



Paxta chigiti



Kalava ip



2023- yilning yanvar-fevral oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 1,7 ming tonna boshqa plastmassalardan qoplar va sumkalar (2022-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 54,7 % ga kamaygan), 0,2 ming tonna paxta, bint va shu kabi mahsulotlar (94,4 % oshgan) hamda 7,5 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (39,4 % ga kamayib) ishlab chiqarilib, past o'sish sur'atlari kuzatildi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar-fevral | 2023- yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|---|-------------------------|-------------------------|-----------|
| Yirik shoxli qoramollar uchun ozuqa, tonna | 3555 | 1905 | -1650 |
| Paxta, bint va shu kabi mahsulotlar, tonna | 118,9 | 231,0 | 349,9 |
| Boshqa plastmassalardan qoplar va sumkalar, ming t. | 3,9 | 1,7 | -2,2 |
| Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t. | 5,6 | 3,5 | -2,1 |
| Paxta tolasi, ming t. | 12,3 | 7,5 | -4,8 |


Yanvar-fevral oylari yirik korxonalar bo'yicha

Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish

2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati ulushi 0,05 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 65,3 % ga ko'paygan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 0,1 % gacha kamaydi, fizik hajm indeksi esa, 33,0 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 0,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 4,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 101,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 7,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 33 % ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 66,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 98,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 35,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 14,7 % ga o'sgan va ishlab chiqarish hajmi 318,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 42,2% ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 90,0 % ni va ishlab chiqarish hajmi 2,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 111,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-fevral oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 41,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 22,8 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 376,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati


2022- yil yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 109,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,5 %, fizik hajm indeksi 89,7 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 40,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022- yil yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 170,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 % ni, fizik hajm indeksi 14,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish




2022- yil yakunlariga ko'ra, asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 86,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,0 % ni, fizik hajm indeksi 81,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 27,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2022- yil yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 202,4 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni, fizik hajm indeksi 55,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 5,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1232,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 57,5 %) ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-fevral oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 1,1 % ga kamayganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar-fevral | 2023- yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|--------------------------------|-------------------------|-------------------------|-----------|
| Elektroenergiya, mln.kVt.s | 3352,7 | 3491,7 | 139 |
| Issiqlik energiyasi, ming gkal | 35,7 | 24,9 | -10,8 |

yanvar-fevral oylari yirik korxonalar bo'yicha

Yanvar-fevral
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 %) ni tashkil etdi.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar-fevral | 2023- yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|---|-------------------------|-------------------------|-----------|
| Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd.so'm</i> | 6,7 | 5,3 | -1,4 |
| Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd.so'm</i> | 2,6 | 2,4 | -0,2 |

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 21,4 % ga pasaygan hamda chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 258,7 % ga ko'payishi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 368,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 103,8 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 17,2 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2022- yil
yanvar-fevral

61,9%

2023- yil
yanvar-fevral

73,9%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2022- yil
yanvar-fevral

38,1%

2023- yil
yanvar-fevral

26,1%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 3,5 % (2022- yil yanvar-fevral oylarida 48,2 %) ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib 20,3 % , Yangiyer shahri 19,0%, Guliston shahri 17,4 % , Sayxunobod tumani 9,6 % hamda Xovos va Boyovut tumanlari 7,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (103,8 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Yangiyer shahri (327,6 %), Guliston tumani (150,6 %), Boyovut tumani (126,0 %) hamda Xovos tumanida (109,2 %) qayd etildi.